

## V. Shartnomani o'zgartirish va bekor qilish tartibi

5.1. Ushbu Shartnoma tuzilgan shartlar **Tomonlarning** kelishuviga ko'ra yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiliga muvofiq o'zgartirilishi mumkin.

5.2. Ushbu Shartnoma **Tomonlarning** kelishuviga ko'ra bekor qilinishi mumkin.

5.3. Ushbu Shartnoma muddatidan oldin bekor qilinadi:

5.3.1. **Buyurtmachining** tashabbusi bilan;

5.3.2. **Ijrochining** tashabbusi bilan:

- **Tinglovchini** o'qishdan chetlatish intizomiy jazo chorasi sifatida qo'llangan taqdirda;

kasbiy ta'limg dasturi (o'quv dasturining bir qismi) bo'yicha - **Tinglovchilar** tomonidan bunday ta'limg dasturini (o'quv dasturining bir qismini) vijdonan o'zlashtirish va o'quv rejasini amalga oshirish majburiyatları bajarilmagan taqdirda;

- **Tinglovchining** aybi bilan uning Markazga noqonuniy ravishda o'qishga kirishiga sabab bo'lgan Markazga qabul qilish tartibi buzilganligi aniqlangan taqdirda;

- pullik ta'limg xizmatlari uchun to'lovnii amalga oshirish kechiktirilgan taqdirda;

- **Tinglovchining** harakatlari (harakatsizligi) tufayli pullik ta'limg xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha majburiyatlarini tegishli darajada bajarishning imkonii bo'lmasa;

- **Talaba** yoki uning qonuniy vakillari va Ijrochining irodasiga bog'liq bo'lman holatlar yuz berganda, shu jumladan Ijrochi tugatilgan taqdirda,

5.4. **Ijrochi** zararlarni **Buyurtmachiga** to'liq qoplash sharti bilan shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarishdan bosh tortishga haqli.

5.5. **Buyurtmachi Ijrochi** tomonidan haqiqatda qilingan xarajatlarni to'lash sharti bilan ushbu shartnomani bajarishdan bosh tortishga haqli.

## VI. Ijrochi, Buyurtmachi va Tinglovchining javobgarligi

6.1. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki tegishli darajada bajarmaganligi uchun **Tomonlar** O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va ushbu shartnoma bo'yicha javobgar bo'ladilar.

6.2. Agar 5 kunlik muddat davomida **Ijrochi** tomonidan ta'limg xizmatidagi kamchiliklar bartaraf etilmagan bo'lsa, **Buyurtmachi** Shartnomani bajarishdan bosh tortishga va zararni to'liq qoplashni talab qilishga haqli. **Buyurtmachi**, shuningdek, taqdim etilgan ta'limg xizmatida jiddiy kamchilik aniqlangan taqdirda yoki shartnoma shartlaridan boshqa muhim og'ishlar aniqlangan taqdirda, Shartnomani bajarishdan bosh tortishga haqli.

6.3. **Ijrochi** ta'limg xizmatlari ko'rsatish shartlarini (boshlanishi va (yoki) ta'limg xizmatlari ko'rsatish oxiri va (yoki) ta'limg xizmatlari ko'rsatishning oraliq muddatlari) buzgan bo'lsa yoki ta'limg xizmatlari ko'rsatish paytida uni o'z vaqtida taqdim etilmasligi aniq bo'lgan bo'lsa, **Buyurtmachi** o'z tanloviga ko'ra quyidagilarga xaqli:

- **Ijrochiga** yangi muddat tayinlash, uning davomida Ijrochi ta'limg xizmatlarini ko'rsatishni boshlashi va (yoki) ta'limg xizmatlarini ko'rsatishni tugatishi kerak;

- Shartnomani bekor qilish.

## VII. Shartnoma muddati

7.1. Ushbu Shartnoma **Tomonlar** tomonidan tuzilgan kundan boshlab kuchga kiradi va **2022 yil 31 dekabr** qadar amal qiladi

7.2. **Tinglovchiga** akademik ta'til berilgan taqdirda Shartnomaning amal qilishi, **Buyurtmachi** tomonidan ushbu Shartnomada nazarda tutilgan to'lov tartibiga qo'yiladigan talablar bajarilishi sharti bilan, akademik ta'til berilgan muddatga cho'ziladi. Akademik ta'til davrida ta'limg uchun to'lov undirilmaydi.

## VIII. Yakuniy qoidalar

8.1. **Ijrochi** va uning ushbu shartnomada ko'rsatilgan faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar **Ijrochining** "Internet" tarmog'idagi rasmiy saytida joylashtirilgan mazkur shartnoma tuzilgan sanadagi axborotga mos keladi.

8.2. Ta'limg xizmatlari ko'rsatish muddati (o'qish davri) deb Shartnomada ko'rsatilgan va Kalendar rejada ko'rsatilgan sanalarga mos keladigan vaqt oralig'i tushuniladi.

8.3. Ushbu Shartnoma ikki nusxada tuziladi va: bir nusxasi - **Ijrochida**, biri - **Buyurtmachida** saqlanadi.